



THE ROLE OF POETIC DEVICES IN THE DEVELOPMENT OF UZBEK GHAZAL POETRY IN THE SECOND HALF OF THE 20TH CENTURY

Jurayeva Mahliyo Dusmurod qizi

Alisher Navoi Tashkent State University of Uzbek Language and
Literature, PhD student
mjurayeva093@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15592366>

ARTICLE INFO

Received: 25th May 2025

Accepted: 30th May 2025

Online: 31st May 2025

KEYWORDS

Ghazal, ilmhoyi segona,
ilmi badi', kalomi jomi',
izdivoj, ibhom, ittifoq,
radd.

ABSTRACT

This article is dedicated to the poetic analysis of select ghazals created in Uzbek literature during the second half of the 20th century. It reveals the significance of ilmi badi' (the science of rhetoric) within the ilmhoyi segona - the triad of sciences, which forms the foundation of classical Eastern poetics - in the development of the period's ghazal. Alongside traditional poetic devices such as tashbih, talmih, tashxis, tazod (including mutobaqa, tiboq, tatbiq, taqofu), husni ta'lil, irsoli masal, iyhom (tahyil, tavriya), tajnis, tanosub (muroat un-nazir, tavfiq, iytilof, talfiq), and ishtiyoq, the article separately analyzes artistic devices like kalomi jomi', izdivoj, ibhom, ittifoq, and radd, which are widely used in poetry but have received little scholarly attention. The extent to which these devices are employed in the ghazals has been determined, revealing that some ghazals are constructed on the basis of a specific poetic device from the matla (opening couplet) to the maqta (closing couplet). Through the examination of these ghazals, the article ascertains the degree to which the poets adhered to the traditions of their predecessors and highlights their innovative contributions.

РОЛЬ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ПРИЕМОВ В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ УЗБЕКСКОЙ ГАЗЕЛИ ВО ВТОРОЙ ПОЛОВИНЕ XX ВЕКА

Жураева Махлиё Дусмурод кизи

Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы имени
Алишера Навои, базовый докторант
mjurayeva093@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15592366>

ARTICLE INFO

Received: 25th May 2025

Accepted: 30th May 2025

Online: 31st May 2025

ABSTRACT

Данная статья посвящена анализу поэтических аспектов некоторых газелей, созданных в узбекской литературе второй половины XX века. Раскрыто значение науки бадий, входящей в триаду наук - илмхойи сегона, являющейся основой классической поэтики Востока, в развитии газели того периода. Наряду с традиционными поэтическими приемами, такими как ташбих, талмих, ташхис, тазод



KEYWORDS

Газель, илмхойи сегона,
илми бадӣ, калом
джомӣ, издиводж,
ибхом, иттифок, радд.

(мутобака, тибок, татбик, такофу), хусни таълил, ирсоли масал, ийхом (тахйиль, таврия), таджнис, таносуб (муроат ун-назир, тавфиқ, иътилоф, талфиқ), иштиқок, отдельно анализируются художественные приемы, такие как каломи джомӣ, издиводж, ибхом, иттифок, радд, которые широко используются в поэзии, но мало изучены с научной точки зрения. Определена степень использования этих приемов в газелях, и установлено, что некоторые газели построены на основе определенного поэтического приема от матла до макта. На основе созданных газелей выявлено, в какой степени поэты следовали традициям предшественников и проявляли новаторство.

**XX ASR II YARMI O'ZBEK G'AZALIYOTI TAKOMILIDA BADIY
SAN'ATLARNING O'RNI**

Jo'rayeva Mahliyo Dusmurod qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, tayanch
doktorant

mjurayeva093@gmail.com ORCID ID: 0009-0006-6255-3008

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15592366>

ARTICLE INFO

Received: 25th May 2025

Accepted: 30th May 2025

Online: 31st May 2025

KEYWORDS

G'azal, ilmhoyi segona,
ilmi badi', kalomi jomi',
izdivoj, ibhom, ittifoq,
radd.

ABSTRACT

Mazkur maqola XX asr II yarmi o'zbek adabiyotida yaratilgan ayrim g'azallarning poetik aspektdagi tahliliga bag'ishlanadi. Sharq mumtoz poetikasining asosi bo'lgan ilmhoyi segona – ilmlar uchligi tarkibidagi ilmi badi'ning davr g'azaliyoti taraqqiyotidagi ahamiyati ochib berilgan. Tashbih, talmih, tashxis, tazod (mutobaqa, tiboq, tatbiq, taqofu), husni ta'lil, irsoli masal, iyhom (tahyil, tavriya), tajnis, tanosub (muroat un-nazir, tavfiq, iytifol, talfiq), ishtiyoq kabi an'anaviy she'riy san'atlar bilan bir qatorda she'riyatda ko'p qo'llangan, ammo kam ilmiy tahlil etilgan kalomi jomi', izdivoj, ibhom, ittifoq, radd kabi badiiy san'atlar alohida tahlilga tortilgan. G'azallardagi ushbu san'atlarning qo'llanilish darajasi belgilangan va bundan ba'zi g'azallarning matla'dan maqta'ga qadar ma'lum she'riy san'at asosiga qurilgani aniqlandi. Yaratgan g'azallari orqali shoirlarning salaflar an'anasiga qay darajada ergashgani va ularning novatorligi aniqlangan.

Kirish. Sharq mumtoz poetikasi tarkibi hamda she'riyat asosi bo'lgan ilmhoyi segonaning asosiy bir unsuri ilmi badi' g'azallar badiyatini tahlil etishning asosiy me'zonidir. Badiiy asarda nimani ifodalash emas qay yo'sinda ifoda etish muhim ekanligini hisobga olib, badiiy san'atlar ilmiy tahlil etiladi.

Lirikani, xususan, g'azallarni she'riy san'atlarsiz tasavvur etish mushkul. She'r va undagi misralarning latifligi, nafosati va nazokati unda qo'llangan badiiy san'atlarga asoslanadi. Sharq adabiyoti tarixiga nazar solsak, adibning ijodiy kamoloti uning asarlarida ifodalamoqchi bo'lgan



ishqiy, hissiy kechinmalarni yoki badiiy-estetik, ijtimoiy-falsafiy, axloqiy-ta'limiy g'oyalarni muayyan badiiy san'atlar vositasida o'quvchiga yetkaza olish mahorati bilan bog'liq. She'riy san'atlar tizimi ilmi ba'di' doirasida o'rganiladi. Badi' – arabcha nodir, yangi paydo bo'lgan narsa ma'nosini anglatadi. "Navoiy bu fan haqida so'z yuritganda qisqartirib "sanoye" deb ataydi"¹. Atoulloh Husayniy esa "go'zallik" deydi².

Shayx Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a" (1437) asarinining 3-qismi badiiy san'atlar masalasiga bag'ishlangan bo'lib, jami 97ta badiiy san'at arabiy, forsiy va turkiy misollar bilan izohlangan. Ilmi badi' haqidagi yana bir mukammal asar Atoulloh Husayniyning "Badoye us-sanoye" asaridir. Avvalgi ilmi badi'ga doir asarlarda badiiy san'atlar ikki turga, ya'ni ma'naviy va lafziy san'atlarga ajratilgan. Atoulloh Husayniy ularni "Nutq go'zalliklari uch qism bila cheklanur. Ul jihattinkim, har go'zallik yo faqat lafz, yo faqat ma'no, yohud lafzu ma'no yig'indisining go'zalligidur"³, – deya lafziy, ma'naviy va mushtarak san'atlarga ajratgan.

She'riy san'at turlaridan dastlabkisi *lafziy san'atlar* bo'lib, ular lafzga bog'liq holda o'rganiladi. Ushbu san'atning quyidagi asosiy turlari mavjud: *tarsi', tajnis, radd, qalb, sa'j, tashtir, tajziya, tasri' tasmit, aks, tardid, zulqofiyatayn, tavshih, mulamma', muqatta', musoviyat tarafayn, mudavvar, mushokala* va boshqalar bo'lib, "lafziy go'zallik ko'pu son-sanoqsizdur"⁴.

Badiiy san'atlarning ikkinchi turi ma'naviy san'atlar bo'lib, Sharq mumtoz she'riyatida ko'p murojaat etilgan ma'naviy san'atlar quyidagilar: *tashbih, talmih, tamsil, tashxis, takrir, ta'rix, tajohilu orif, husni ta'lil, irsoli masal, mubolag'a, kinoya, laff va nashr, iyhom, kalomi jomi', ruju' (istidrok), itnob, iyjoz*.

Uchinchi badiiy san'atlar guruhi mushtarak san'atlar va "bu san'atda ham ko'pchilik qoshida mu'tabar bo'lg'anlarin ko'zlab bayon etilgusidir"⁵. *Tazod, tajnis, tanosub, tazmin, ishtiqoq, baroati istihlol, husni matla', husni maqta'* kabilardan iborat.

XX asr II yarmi g'azaliyotida lafziy go'zalliklardan "radd"ning ishtiroki ahamiyatli. Lafziy san'atlar ichida "eng mumtoz va maqbullaridan biri" (Rashiduddin Vatvot) hisoblanuvchi ushbu san'at turi so'zlar takroriga asoslanadi.

Turli olimlar tomonidan farqli turlarga ajratilgan. Raddning turlarini hosil qilishda, asosan, uni baytning qaysi o'rnida kelganiga ahamiyat qaratilgan. XX asr II yarmi she'riyatida shoirlarning ushbu san'at bilan bog'liq novatorligini kuzatish mumkin. Habibiy va Charxiy ijodida radd san'atining farqli murakkab turlari g'azalning boshidan oxirigacha qo'llanib, o'ziga xos ohangdorlikni yuzaga keltirgan.

Habibiyning "Jahonim o'zing" va Charxiyning "Mehrim barqaror" nomli g'azallarida matla'dan maqta'ga qadar har bir baytda *radd us-sadr il-al-ajz* va *radd ul-aruz il-al-ibtido* san'atlari o'rin almashib qo'llangan. Radd us-sadr il-al-ajz *tasdir* deb ham yuritiladi, bunda sadr ajzda qaytariladi. Ma'lumki, bayt boshi *sadr*, oxiri esa *ajz* deb ataladi. Bunda bayt boshidagi so'z

¹ Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. Тўлдирилган ва тузатилган иккинчи нашр. – Т.: Ўзбекистон, 2014. – Б. 46.

² Хусайний А. Бадойиъу-с-санойиъ. Форсчадан А.Рустамов таржимаси. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. – Б. 35.

³ Хусайний А. Бадойиъу-с-санойиъ. Форсчадан А.Рустамов таржимаси. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. – Б. 34.

⁴ Хусайний А. Бадойиъу-с-санойиъ. Форсчадан А.Рустамов таржимаси. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. – Б. 35.

⁵ Хусайний А. Бадойиъу-с-санойиъ. Форсчадан А.Рустамов таржимаси. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. – Б. 225.



uning oxirida ham takrorlanadi. Radd ul-aruz il-al-ibtido esa tasbi' san'atini yuzaga keltiradi. Bu aruzning ibtidoda takrori bo'lib, birinchi misra oxiri(aruz)dagi so'z ikkinchi misra boshi(ibtido)da takrorlanadi.

(matla') **Jonu jahonim o'zing**, nomu nishonim o'zing,

Nomu nishonim o'zing, **jonu jahonim o'zing**⁶

Matla'yi bilan boshlanuvchi ushbu g'azaldagi barcha so'z ushbu san'atni hosil qilish uchun ishtirok etgan. Devonning 165-g'azali bo'lgan ushbu ishqiy lirika boshdan oxir yor madhi tarannum etilgan oshiqning ash'oridir. G'azal aruz vaznining *munsarihi musammani matviyi makshufida* yozilgan (afoyli va taqti'si: muftailun, foilun, muftailun, foilun; – V V – / – V – / – V V – / – V –).

Shuningdek, Asg'arali Charxiy devonidagi g'azallar orasida *qaytarma bahrli g'azal* uchraydi. Ushbu g'azalda ham boshidan oxiriga qadar *radd us-sadr il-al-ajz* va *radd ul-aruz il-al-ibtido* san'ati qo'llangan bo'lib, shoir uni "qaytarma bahr" deb atagan⁷:

Baxtiyorman yashnagan yurtimda, mehrim **barqaror**,

Barqaror mendek shirin umri-la hamma **baxtiyor**.

Ixtiyor erkini qo'ldan yaxshi inson **bermagay**,

Bermagay hargiz yomon yo'llarga vijdon **ixtiyor**⁸.

Boshqa baytlar ham xuddi shunday qaytariqlarga ega. Bu o'ziga xoslikni keltirib chiqaradi. So'zlar takrori insonda zerikishni emas, balki o'zgacha bir zavqni uyg'otadi. G'azal mavzusiga ko'ra axloqiy-ta'limiy turga mansub bo'lib, pand-nasihat ruhida yaratilgan. Bu esa asarda kalomi jomi' san'atining ham asosiy rolda ekanligidan dalolat.

Adabiyot tarixida, xususan, XX asr ikkinchi yarmi g'azaliyotida ko'p qo'llangan, ammo kam izohlangan ma'naviy san'atlardan biri *kalomi jomi'*dir. "*Kalomi jomi'* andog' kalomdurkim, o'gut, hikmat va zamonu birodarlardan shikoyat kibi bir nima bila shirayu zeb berilg'an bo'lur"⁹.

Anglashiladiki, pand-nasihat ruhidagi barcha asarlarda kalomi jomi'dan foydalanilgan. Jumladan, Chustiy, Charxiy va Habibiy asarlari orasida axloqiy-ta'limiy, ijtimoiy-falsafiy mavzudagi g'azallar zamona ahli, kelajak avlodga pand-nasihat, maslahat va o'git berish, ularni ezgulikka chorlash, ba'zi o'rinlarda lirik qahramonning o'z holidan shikoyat qilishi bilan ahamiyatlidir. Charxiy qalamiga mansub ushbu san'atga aloqador bir qancha g'azallar e'tiborimizni tortdi:

Gar kelsa maqom, so'zlasa so'z xonasi yaxshi,

*Har xonaning o'z ko'zlari mastonasi yaxshi*¹⁰.

Yuqoridagi matla' bilan boshlanuvchi g'azal *hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf* (ruknlari: ma'uvlu mafoiylu mafoiylu fauvlun; taqti'si: – – V / V – – V / V – – V / V – –) vaznida yozilgan. Shoirning kelajak avlodga atalgan axloqiy-ta'limiy mavzudagi g'azalidir.

Boshqa bir g'azalda esa shoir:

Eng ulug' insonga avval tarbiya,

⁶ Хабибий. Девон. – Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. – Б. 188.

⁷ Qarang. Charxiy. Qiyolab o'tdi. Toshkent: Akademyashr, 2010. – B. 53.

⁸ Чархий. Девон. – Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – Б. 65.

⁹ Хусайний А. Бадойиъу-с-санойиъ. Форсчадан А.Рустамов таржимаси. – Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. – Б. 136.

¹⁰ Чархий. Девон. – Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – Б. 27.



*Tarbiyatdin ezgu holim deb jo'ya*¹¹, – deb tarbiya ulug' ne'mat ekani haqidagi o'gitlarini o'quvchiga yetkazadi.

Ayniqsa, Nabixon Chustiy ijodida ushbu san'at ishtirok etgan g'azallar ko'pchilikni tashkil etadi. Shoir goh yosh avlod tarbiyasi yo'lida qayg'urib, ularga pand-nasihat bersa, goh zamona ijtimoiy ahvoli haqida mulohazalarini qalamga oladi:

*Unmasa maqsadni tuxmi toza tuprog'im dema,
To'smasa ofat selin, har cho'qqini tog'im dema*¹².

Yoki:

*Sen yigit bo'lsang agar nomusu oring saqlagil,
Dil buzuq, begonadan ko'zi xumoring saqlagil*¹³.

Shoirilar ijodida ijtimoiy-axloqiy g'oyalar, teran falsafiy mushohadalar aynan *kalomi jomi'* san'ati vositasida o'z ifodasini topadi.

Chustiy g'azallari orasida ishqiy mavzudagi g'azallar ham bisyor bo'lib, ularni yaratishda shoir so'zlardan mohirona foydalangan va bu g'azalning o'qishli bo'lishiga sabab bo'lgan. Shuningdek, qo'llanilgan nozik qochirimlar va she'riy san'at namunalari oshiqning ichki kechinmalarini ochib berishga, uning his-tuyg'ularini "yoriga" yetkazishga xizmat qiladi. Xususan, bir g'azali muvashshahidagi she'riy san'atlarga nazar tashlasak, *tazod*, *tashxis*, *tanosub*, *tashbih* kabi san'atlar bilan birga to'rtinchi va beshinchi baytlarda **tavze'** san'ati ham qo'llanganining guvohi bo'lamiz. Tavze' (ar.: tarqatmoq, taqsim qilmoq) – nazm yoki nasrda ohangdoshlikni yuzaga keltirish uchun imkon beradigan san'at. Bunga bayt yoki jumlada bir xil undosh tovushga ega bo'lgan so'zlarni qo'llash orqali erishiladi¹⁴. Ushbu san'at turi g'azalda quyidagicha istifoda etilgan:

*Yondi jonim, kuydi jismim, qolmadi hech toqatim,
Jonga rahm et, yoki mujgon tiri birlan ot meni.
Xodiming xodimlariga xasta jonimdir g'ulom,
Hoziqi vaslingga bu qul xasta deb ko'rsat meni*¹⁵.

Shuningdek, oltinchi baytda istiora qo'llangan. Istiora – arabcha so'z bo'lib, "oriyatga olish", "omonatga olish" degan ma'nolarni bildiradi. Shams Qays Roziy istiorani majozning bir ko'rinishi sifatida izohlaydi.

Chustiyning ushbu g'azalida ochiq istiora – **istiorayi bit-tasreh** qo'llangan bo'lib, unda istiora obyekti, ya'ni o'xshatilayotgan narsa tilga olinmaydi:

*Amr etib **ikki qaro jallod**ingga, ey nozanin,
Sahnayi shavqingda tufroq ustida o'ynat meni.*

Baytda "ikki qaro jallod" so'zlari ochiq istioradir. Istiora ma'lum xususiyatlariga ko'ra *tashbihi kinoyani* eslatadi. Chunki ikkala san'at turida ham faqat *o'xshatilmish* ishtirok etadi. Masalan, "qosh" deyilmasdan "ikki qaro jallod" deyilishi.

Mumtoz she'riyat tarixiga nazar solsak, she'rlar badiiyati, asosan, ma'naviy va mushtarak san'atlar poydevoriga qurilganining guvohi bo'lamiz. Jumladan, XX asr II yarmi g'azallarida

¹¹ Чархий. Девон. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – Б. 78.

¹² Чустий. Садоқат гуллари. – Т.: Внешторгиздат, 1992. – Б. 30.

¹³ Чустий. Садоқат гуллари. – Т.: Внешторгиздат, 1992. – Б. 116.

¹⁴ Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. Тўлдирилган ва тузатилган иккинчи нашр. – Т.: Ўзбекистон, 2014. – Б. 46.

¹⁵ Чустий. Садоқат гуллари. – Т.: Внешторгиздат, 1992. – Б. 97.



tashbih, talmih, tashxis, husni ta'lil, irsoli masal, ibhom, iyhom (tahyil, tavriya), *kalomi jomi', ittifoq* kabi ma'naviy san'atlar bilan bir qatorda *tazod* (mutobaqa, tiboq, tatbiq, taqofu), *tajnis, tanosub* (muroat un-nazir, tavfiq, iytilof, talfiq), *ishtiyoq* kabi mushtarak san'atlarning ahamiyati katta.

Davr shoirlari ma'naviy san'atlar ichida murakkab va latofatlisi sanaluvchi husni ta'lil san'atidan moxirona foydalanib, shox baytlar yaratdilar. Xususan, shoir Chustiy ijodida bir qancha she'riy san'atlar jo'rligida yaratilgan oshiq ishq va yor madhining moxirona tasviri tajassum etgan g'azallar bisyorki, ulardan biri quyidagi matla' bilan boshlanadi.

Ochildi ko'zlari birdan yuzingga boqqan a'molar,

Qachon bu mu'jizotga bo'ldi molik ibn Sinolar.

Baytda deyarli har bir g'azalda uchrovchi tanosub san'ati qo'llangan bo'lib, "bu san'atdin xoliy she'r kam bo'lur"¹⁶. Shuningdek, "ibn Sino" talmihni yuzaga chiqargan.

Uchinchi va to'rtinchi baytlarda esa husni ta'lilning go'zal namunasi qarshimizga chiqadi:

Labingdan rang o'g'irley deb uzukka bo'ldi yoqut ko'z,

Tushib qo'lga qizardi tiz bukib qildi tavallolar.

Tushib qadri seningdek bebaho oldida sarg'aygach,

Qulog'ingga osildi hasratin aytmakka tillolar.

Baytlardan anglashiladiki, yoqutning qizilligi-yu tillaning sariqligiga asl sabab yor chiroyidir. Tabiatda qizil rangda uchrovchi yoqutning qizilligi sababini shoir chiroyli dalillab: yor labidan rang o'g'irleyman deganda qo'lga tushib uyalganidan shu holga kelgan, degan iddaoni o'rta tashlaydi.

Tillaning sariqligiga sabab esa quyidagicha bayon etilgan: qimmatbaho metall hisoblangan tilla o'z qadrining sevgili go'zal oldida ancha past ekanligidan kuyunib ranggi sarg'aydi (tibbiyotdan ma'lumki, za'faron va sariq rang kishining bemorligi va ko'p xasrat chekkani alomatidir). So'ngra ayollar qulog'iga tilla taqib yurishini "tilla o'z dardini ul go'zalga aytmak istagida yor qulog'iga osilib olgan"i bilan izohlaydi.

O'n uch baytdan iborat ushbu g'azalning sakkizinchi baytida:

Ikki qirg'og'ini daryo quloq aylab eshitmoqda,

Taloshub dur tishingning ta'rifin aytganda shaydolar, – deya mubolag'a va tashxis orqali shaydolari tishining ta'rifini aytganda hatto daryolar ham ikki qirg'og'ini quloq aylab ularni tinglashga kirishishi yorga bayon etadi. Dastlabki o'n bir baytda faqat yor vasfi kuylangan bo'lsa, keyingi misralarda oshiq o'z holini anglatishga kirishadi:

Soqol oqin pilig qildim, dilimdan unga o't berdim,

*Vujudim sha'midur, bu shu'lasin ayta tamosholar*¹⁷.

Zamirida Ollohg muhabbat yashiringan ushbu g'azalning so'nggi baytlarida bu yaqqol namoyon bo'la boshlaydi. Qarib qolgan shoir tashbih san'ati orqali soqoli oqini piligga, dilidagi Olloh ishqidan yaralgan o'tli muhabbatni haqiqiy olovga mengzamoqda va vujudining sha'm kabi yonib eriyotganini izhor etmoqda.

Otashnafas shoir Erkin Vohidov ijodida ham turli she'riy san'atlar raqsini ohang va ma'no jo'rligida shoir iste'dodi namoyishi uchun xizmat qilganining guvohi bo'lamiz. Shoir "Uzum"

¹⁶ Хусайний А. Бадойиъу-с-санойиъ. Форсчадан А.Рустамов таржимаси. – Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. – Б. 233.

¹⁷ Чустий. Садоқат гуллари. – Т.: Внешторгиздат, 1992. – Б. 195.



nomli g'azalida *tashbih*, *tashxis*, *tanosub*, *husni ta'lil*, *istiora* san'atlari yordamida uzumning to pishib yetilib sharob o'laroq yor lablariga qovushguncha bo'lgan jarayonni o'quvchi ko'z o'ngida jonli gavdalantiradi:

Termulib shabnamli yaproq –

Ostidan pinhon uzum,

Lablaringga yetmoq istab

*Tong sahar giryon uzum*¹⁸.

Matla'si bilan boshlanuvchi ushbu voqeaband g'azalda boshdan oxir *husni ta'lil* va *tashxis* san'atlari moxirona qo'llangan.

Adibning yana shu kabi boshdin oxir *husni ta'lil* hamda *tashxis* asosiga qurilgan g'azallaridan biri "Tun bilan yig'labdi bulbul..." g'azalidir:

Tun bilan yig'labdi bulbul

G'uncha hajri dog'ida.

Ko'z yoshi shabnam bo'lib

*Qolmish uning yaprog'ida*¹⁹, – deya tong chog'i g'uncha yaproqlarida qolgan shabnamning sababini go'zal dalillab, bulbulni "yig'latgan" shoir g'azal matla'sining *husni matla'* o'laroq namoyish etgan. Mazkur g'azalda *tazod*, *tanosub*, *talmih*, *tashbih* san'atlari ishq tarannumi uchun yordamga oshiqadi.

Shoirning boshqa bir g'azalida esa matla'dan maqta'ga qadar *tazod* san'atidan foydalanilgan. Bu ijodkor ifodalamoqchi bo'lgan fikrni teran va yanada ta'sirchan bo'lishiga xizmat qilgan:

Matla': *Barcha shodlik senga bo'lsin,*

Bor sitam, zorlik menga,

Barcha dildorlik sengayu,

Barcha xushtorlik menga.

Maqta': *Senga she'rni bitsin Erkin*

Yirtib otmoq o'z ishing,

Kasbi inkorlik sengayu,

*Aybda iqrorlik menga*²⁰.

Ishqiy mavzuda yozilgan ushbu mumtoz she'r *g'azali zulradifayn* bo'lib, "senga" va "menga" so'zlari qo'shradiflikni hosil qilgan. Bir, uch, besh, yetti, sakkiz va to'qqizinchi baytlarda *zulqofiyataynlik*ning ham guvohi bo'lamiz. Qofiyadosh so'zlar qatoridan ularning *murdaf* hamda *mutlaq* qofiya ekanligi anglashiladi.

Abdulla Oripov g'azallari ham bu borada o'ziga xos. Jumladan, bir g'azali matla'sida shoir *takrir*, *talmih*, *mubolag'a* san'atlari yordamida lirik qahramonning ishq ko'yida qay ahvolga tushib qolganini ifodalaydi:

Vahki, ishq sahrosida qoldim beishq tanho bu kun,

Chiqma, Qays, ohim bilan yonmoqda bu sahro bu kun.

Boshqa bir baytda kitobat san'ati, *tashbih* va *tanosub*dan foydalanib yor labi nunga, oshiq holati egilgan hilolga qiyos etilgan:

¹⁸ Воҳидов Э. Ёшлик девони. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1969. – Б. 61.

¹⁹ Воҳидов Э. Ёшлик девони. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1969. – Б. 5.

²⁰ Воҳидов Э. Ёшлик девони. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1969. – Б. 7.



Nun labing uzra sokin qoldi hiloldek holatim,

*Harf o'yin aylay desam, o'zga erur imlo bu kun*²¹.

O'zbek mumtoz adabiyotida ko'p uchrovchi, ammo kam izohlangan ma'naviy san'atlar ham borki, ulardan biri *ittifoq* san'atidir. Ushbu san'at turi qo'llangan she'rda muallif taxallusi yoki biror ism yoki nom ikki xil ma'noda, ya'ni lug'aviy va istilohiy ma'noda keladi. Erkin Vohidovning ushbu g'azaliga e'tiborimizni qaratamiz:

Yangrasin Erkin so'zing,

Aslo tiling lol o'lmasin.

Dast ko'tar davron yukini

*etma qadding yo, qalam*²².

Tabiiyki, barcha shoir ham ushbu san'atni qo'llab g'azal yoza olmaydi. Bunga sabab shoir taxallusi turdosh ot o'laroq ma'no anglatishi lozim. Qalamga bag'ishlab yozilgan ushbu g'azalda *ittifoq*dan tashqari tashbih, izdivoj, takrir, tanosub san'atlari faol qo'llangan. Ahamiyatli jihati shundaki, *ittifoq* san'ati faqat maqta' baytda yoki taxallus qo'llangan baytda ishtirok etadi.

Mushtarak san'atlar sirasiga kiruvchi *ishtiqoq*ning ham davr she'riyati rivojida hissasi katta. Mumtoz adabiy manbalarda *iqtizob*, *muhtazab* deb ham atalgan *ishtiqoq* san'ati baytda yoki jumlada bir qancha o'zakdosh so'zlarning ishtirokidan iborat. Ya'ni bir o'zakdan tashkil topgan bir qancha asosdosh so'zlarning ba'zan butun g'azalning boshidan oxirigacha ishtirok etganining guvohi bo'lamiz. Mana shunday asarlardan biri Erkin Vohidovning "Gulchehralar" g'azalidir:

matla': *Gul bo'lib, gulgun yonib,*

Gulshan aro Gulchehralar,

Gul uzib o'ynar, qo'yib

Gulga bino Gulchehralar.

maqta': *Bu chaman gullarga kondir,*

Ochilib yashnang mudom,

Gul bo'lib, gulgun yonib,

*Gulshan aro Gulchehralar*²³.

Baytlarda *ishtiqoqqa* asos bo'lgan so'z "gul" bo'lib, undan *gulchehra*, *gulgun*, *gulshan* so'zlari kelib chiqqan. Baytlardagi so'zlar takrori zerikishga olib kelmagan, mazmunga salbiy ta'sir qilmagan, balki g'azaldagi ohangdorlikka va o'ziga xoslikka sababchi bo'lgan.

Ushbu g'azalda *ishtiqoq* san'ati yetakchi o'rin tutgani holda *tashbih*, *istiora*, *muroat un-nazir*, *tashxis*, *talmih*, *radd ul-matla'* san'atlari ham she'r badiiyati va shoir mahoratini ochib berishga xizmat qilgan. Ushbu san'atlar orasida *radd ul-matla'* "o'ziga xos she'riy san'atlardan biri bo'lsa ham, mumtoz badiiyat nazariyasiga bag'ishlangan mashhur asarlarda tilga olinmagan"²⁴. *Radd ul-matla'* – matla'dagi 1-misraning maqta'ning 2-misrasida takrori bo'lib, A.Mirzoyev ta'biri bo'yicha, fors she'riyati vakili Anvariyning bir g'azalida uchraydi²⁵. Faqatgina

²¹ Орипов А. Танланган асарлар тўрт жилдлик. Биринчи жилд. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2000. – Б. 158.

²² Воҳидов Э. Ёшлик девони. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги бадий адабиёт нашриёти, 1969. – Б. 60.

²³ Воҳидов Э. Ёшлик девони. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги бадий адабиёт нашриёти, 1969. – Б. 99.

²⁴ Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. Тўлдирилган ва тузатилган иккинчи нашр. – Т.: Ўзбекистон, 2014. – Б. 141.

²⁵ Мирзоев А.М. Рудаки и развитие газели в X – XV вв. Сталинабад: ТаджикГосиздат, 1958. – С.51.



so'zlar takroridan iborat bo'lib qolmay g'azal mavzusining yaxlitligiga va baytlararo munosabatning izchilligiga ko'mak beruvchi ushbu san'at turi XX asr II yarmi shoirlari ijodida ma'lum darajada ahamiyatga ega.

Har bir so'zida iste'dod va mahorat ufurib turgan bunday g'azallar Erkin Vohidovga xos shoirona lutf va novatorlikdan darak.

Adibning "Masal borkim..." g'azalida matladan maqta'ga qadar *irsoli masal* qo'llangan.

*Ajab vaslingga men endi
Yetishganda ko'rindi moh,
Masal borkim, og'iz oshga,
Burun toshga tegibdir voh²⁶!*

Matla'si bilan boshlanuvchi ushbu g'azal so'nggiga qadar shu zaylda, ya'ni baytlarning ikkinchi misrasida hikmatli so'z yoki maqol qo'llash orqali birinchi misradagi fikrni isbotlashi bilan xarakterlanadi. Bu o'ziga xoslik Lutfiyning mashhur "Ayoqingga tushar har lahza gisu" g'azalini yodga soladi.

Fitrat ta'biri bilan aytganda, she'rda kishilarning qonini qaynatuvchi, singirlarini o'ynatuvchi, miyasini titratuvchi, sezgilarini qo'zg'atuvchi bir kuch, ma'naviy bir kuch²⁷ bo'lmog'i lozim. Lirikada bunday kuchni yuzaga chiqaruvchi asosiy vositalardan biri badiiy san'atlar ekanligi barchaga ma'lum.

References:

1. Воҳидов Э. Ёшлик девони. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги бадий адабиёт нашриёти, 1969. – 146 б.
2. Исҳоқов Ё. Ғазал. – Т.: Фан, 1978. – 160 б.
3. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. Тўлдирилган ва тузатилган иккинчи нашр. – Т.: Ўзбекистон, 2014. – 318 б.
4. Мирзоев А.М. Рудаки и развитие газели в X – XV вв. – Сталинабад: ТаджикГосиздат, 1958. – 71 с.
5. Орипов А. Танланган асарлар. Тўрт жилдлик. Биринчи жилд – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2000. – 431 б.
6. Ҳабибий. Девон. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. – 535 б.
7. Ҳожиаҳмедов А. Шеърӣ санъатлар ва мумтоз қофия. – Т.: Шарқ НМК, 1998. – 158 б.
8. Ҳомидий Ҳ. ва бошқалар. Адабиётшунослик терминлари луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1967. – 293 б.
9. Ҳусайний А. Бадойиъу-с-санойиъ. Аруз вазни ва бадий воситалар ҳақида. Тарж. А.Рустамов. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 1981. – 390 б.
10. Чархий. Девон. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – 216 б.
11. Чустий. Садоқат гуллари. – Т.: Внешторгиздат, 1992. – 343 б.
12. Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунун ул-балоға. – Т.: Хазина, 1996. – 212 б.

²⁶ Воҳидов Э. Ёшлик девони. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги бадий адабиёт нашриёти, 1969. – Б. 129.

²⁷ Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. She'r va shoirliq. – Т.: Ma'naviyat, 2009. Nashrga tayyorlovchi: H.Boltaboyev. – В. 6.



13. Мамажонов З. Ўхшатиш асосидаги шеърый санъатларнинг назарий тавсифи ва таснифи. Филол. фан. бўйича фал. докт. (PhD) дисс. автореф. – Т., 2017. – 48 б.
14. Elektron adabiyotlar:
15. www.academia.edu
16. www.scholar.google.com
17. www.scopus.com
18. www.ziyonet.uz
19. <https://uz.wikipedia.org>